

SAMARQAND SHAHRI SHAROITIDA KICHIK MUSICHA VA KO'K KAPTARNING UYALASH BIOLOGIYASI

Zebiniso Pulatovna Raxmonova
Samarqand Davlat universiteti dotsenti

Aktam Uktamovich Muxtorov
Samarqand Davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda Samarqand shahri hududida Kaptarsimonlar turkumi vakillaridan kichik musicha va ko'k kaptarni ko'p uchramiz va ular insonlar bilan yonma-yon yashab ulardan cho'chimaydi. Ko'k kaptar va kichik musicha inson bilan yonma-yon yashovchi sinantrop qush bo'lib, uning biologik ahamiyatini o'rganish muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada ko'k kaptar va kichik musichaning uya qilish biologiyasini o'rganib, uning qiyosiy ekologiyasi yoritishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Kichik musicha, ko'k kaptar, uya qurish, tuxum qo'yish, tuxum bosib yotish.

BREEDING BIOLOGY OF THE STREPTOPELIA AND COLUMBA LIVIA IN THE CONDITIONS OF SAMARKAND CITY

ABSTRACT

At present, on the territory of the city of Samarkand, from the representatives of the *Columbiformes* order, the *Streptopelia senegalensis* and *Columba livia* are numerous species, they live next to humans and are considered synanthropic species. Their way of life is closely related to human economic activity, therefore, the study of their importance in nature and human life is of great scientific and practical importance. This article attempts to illuminate the comparative ecology of the *Streptopelia senegalensis* and *Columba livia* based on the study of their nesting biology.

Keywords: *Streptopelia senegalensis*, *Columba livia*, nesting, laying eggs, incubating eggs.

KIRISH

Kaptarsimonlar turkumi vakillaridan kichik musicha va ko'k kaptar Samarqand shahri hududida keng tarqalgan bo'lib insonlardan cho'chimaydi, ular bilan yonmayon yashashadi. Kichik musicha sharoit bo'lsa hatto qish oylarida ham ko'payishni davom ettiradi. Shu jihatdan olib qaralganda ushbu turkum vakillarining uyulash biologiyasini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotimizning maqsadi kichik musicha va ko'k kaptarning uyulash biologiyasini o'rganish va solishtirishdan iborat.

Tadqiqotimizni o'tkazishda kichik musicha va ko'k kaptarning yashash joylari va uyularini, tuxumlarini bosish va paloponlarini uyada rivojlanishini solishtirib o'rganish vazifalari qo'yildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotlar uchun 4 ta kichik musicha va 6 ta ko'k kaptarlar uyulari kuzatildi va uyulardagi 8 ta kichik musicha va 12 ta ko'k kaptar tuxumlari topildi. Bu ikkala qushning uya o'lchamlari, tuxumining og'irligi va o'lchami hisoblandi.

O'rganilayotgan qushlarning tuxumlari va polaponlarining og'irligi apteka tarozida, o'lchamlari chizg'ich va shtangensirkul yordamida o'lchandi. Tuxumlarining o'lchamlari va og'irligi quyidagi formulalar asosida statistik qayta ishlandi:

$$\bar{a} = \frac{\sum a}{n}$$

- O'rtacha arifmetik qiymat

$$s^2 = \frac{\sum a^2}{n} - \bar{a}^2$$

- kvadratlar yig'indisi

n - barcha tuxumlar soni

$$s = \sqrt{\frac{\sum a^2}{n} - \bar{a}^2}$$

- O'rtacha arifmetik qiymat

==

σ - kvadrat xato

n - barcha tuxumlar soni

$$s = \sqrt{\frac{\sum (a - \bar{a})^2}{n}}$$

$$s^2 = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n a_i^2 - \bar{a}^2$$

$\sum_{i=1}^n a_i^2$ - kvadratlar yig'indisi
 n - barcha tuxumlar soni
 \bar{a} - variatsiya koeffitsienti
 σ - kvadrat xato
 M - o'rtacha arifmetik qiymat

Kichik musichaning biologiyasiga doir materiallar:

Turkum: Kaptarsimonlar - Columbiformes Oila: Kaptarlar - Columbidae

Urug': G'urraklar - Streptopelia

Tur: Kichik musicha - Streptopelia senegalensis L.

Kenja tur: Musicha – Streptopelia senegalensis ermanni

Kichik musicha kaptarsimonlar orasida O'zbekiston hududida eng keng tarqalgan. Qanotining uzunligi 121-148 mm. Tashqi ko'rinishida jinsiy dimorfizm kuzatilmaydi. Boshi va bo'yni ko'kish pushti rangda, tanasining orqa yelka qismi, dum usti, qanotining ustki qoplovchi patlari jigarrang tUSDagi qo'ng'ir rangda bo'ladi. Dum usti patlarida va orqasining ustki qismida kulrang tus aralashmasi bo'ladi [1]. O'zbekistonda O'rta Osiyoning boshqa kichik respublikalari singari musichaning Streptopeliya senegalenses ermanni kenja turi uchraydi. Kichik musichaning tur areali butun Afrika, Old Osiyo, Eron, Pokiston va Xindistonni qamrab oladi [2]. Barcha o'troq qushlar singari musichalar ham ancha erta uyalashga kirishadi. Z.L.Satayeva [3] ularning sayrashini fevral oyidayoq qayd etgan.

Ko'k kaptarning biologiyasiga doir materiallar:

Turkum: kaptarsimonlar – Columbiformes Oila: Kaptarlar - Columbidae

Urug': kaptarlar - Columba

Tup: ko'k kaptar - Columba livia

Kenja tur: O'rta Osiyo ko'k kaptari - Columba livia neglecta

Ko'k kaptar o'rtacha kattalikdagi qush bo'lib, qanotining uzunligi 184-240 mm ni tashkil etadi. Tashqi tuzilishida jinsiy dimorfizm kuzatilmaydi. Tanasining umumiy rangi ko'kimtir, boshi, dumi, dum usti va dum osti qoplovchi patlari qoramtir rangda ,

yelkasining orqa qismi ochiq rangda bo'ladi. Qoquv patlari kulrang uchi qora. Qanotidan ko'ndalangiga ikkita parallel yo'l-yo'l chiziq o'tadi. Qanotining pastki qoplovchi patlari oq, tumshug'i qora, oyog'i qizil rangda bo'ladi. Yosh qushlarning patlarining orqa va jig'ildon qismida qo'ng'ir tus bo'ladi [1]. O'zbekistonda ko'k kaptarning O'rta Osiyoda uchrovchi Columba livia neglicta kenja turi yashaydi. Ko'k kaptar shimoliy Afrika, O'rta yer Dengizining janubidagi mamlakatlarda va Osiyoning janubi-g'arbiy qismida keng tarqalgan.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Biz olib borgan tajribalarda ko'ra kichik musichalar Samarqand shahri sharoyitida uyalarini ayvonlarning to'siqlari orasiga, ko'p qavatli yuqori panelli uylar deraza romiga, daraxt ustiga quradi. Kuzatishimiz ostiga olingan uyalarining ikkitasi deraza romiga (50 %), bittasi ayvon to'siqi orasiga (25 %), bittasi olcha daraxtida (25 %), joylashgan edi.

Kuzatishlarimizga ko'ra kichik musichalarning uyalarini yassi likopcha ko'rinishida, uya materiallari juda siyrak joylashgan bo'lib, uyaning o'rtacha diametri 15,6 sm, uya latogining chuqurligi 1,95 sm, uyaning yerdan balandligi 5,75 metrni tashkil etadi.(1-jadval).

1-jadval

Kichik musicha uyalarining o'lchamlari

Tur	Uyaning qurilgan Joyi	Uya diametri (sm)	Uya lotogining chuqurligi (sm)	Uyaning yerdan balandligi (m)
Kichik musicha	Deraza romiga	16,2	1,9	6,5
Kichik musicha	Deraza romiga	14,5	2,2	10
Kichik musicha	Ayvon to'siqi	15,8	2	3,5
Kichik musicha	Olcha daraxti	16	1,7	3
O'rtacha		15,6	1,95	5,75

T.Z.Zohidov va R.N.Meklenboursevlarning [4] ma'lumotlariga ko'ra kichik musichalarning uyalarida ko'pincha 2 ta kamdan-kam hollarda 3ta, ba'zan esa faqat bitta tuxum bo'ladi.

2-jadval

Kichik musicha tuxumining o'lchamlari

O'lchanadigan kattaliklar	Minimal	Maksimal	M	$\pm m$	$\pm \sigma$	C	n

Uzunligi (mm)	25	26	25,6	0,10	0,50	0,75	8
Kengligi (mm)	21	22	21,4	0,08	0,46	0,86	8
Massasi (gr)	9	10	9,7	0,15	0,81	0,89	8

Bizning tajribalarimizda kuzatish ostidagi 4 ta uyaning hammasida 2 tadan tuxumlar borligi aniqlandi. Ularning uzunligi (n=8) 25,6 mm, eni 21,4 mmni, og'irligi 9,7 g ni tashkil etadi.(2-jadval).

T.Z Zohidov, R.I Meklenburstevlarning [4] malumotlariga ko'ra ko'k kaptarlar uyasini imoratlarining bo'rtib chiqib turuvchi qismlariga, o'yilgan joylariga, yoki keng tirqishlariga quradi. Uya quruq shoxchalardan ehtiyotsizlik bilan quriladi.

3-jadval

Ko'k kaptar uylarining o'lchamlari

Tur	Uyaning qurilgan Joyi	Uya diametri (sm)	Uya lotogining chuqurligi (sm)	Uyaning yerdan balandligi (m)
Ko'k kaptar	Chordoq	18	2,1	18
Ko'k kaptar	Chordoq	19	2	18,5
Ko'k kaptar	Chordoq	18,5	2,5	19
Ko'k kaptar	Chordoq	20	2,6	19
Ko'k kaptar	Chordoq	21	2,4	18,5
Ko'k kaptar	Chordoq	20,5	2,2	18
O'rtacha		19,5	2,3	18,5

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra ko'k kaptarlar ko'p qavatli imoratlarining chordoqlariga uya quradi. Nazoratimiz ostidagi uylarining xammasi 5 qavatli binoning chordog'ida joylashgan edi. Uyaning o'rtacha diametri 19,5 sm, uya lotogining chuqurligi 2,3 sm, uyaning yerdan balandligi 18,5 metrni tashkil etadi.(3-jadval).

4-jadval

Ko'k kaptar tuxumining o'lchamlari

O'lchanadigan kattaliklar	Minimal	Maksimal	M	$\pm m$	$\pm \sigma$	C	N
Uzunligi (mm)	34	36	35,4	0,14	0,56	0,7	12
Kengligi (mm)	28	29	29,2	0,08	0,43	0,82	12
Massasi (gr)	11	12	11,4	0,19	0,85	0,85	12

T.Z.Zoxidov va R.N.Meklenbursevlarning ma'lumotiga ko'ra [13] ko'k kaptarlar odatda 2 ta tuxum quyadi. Bizning kuzatishlarimizga ko'ra ham ko'k

kaptarning uyasida 2 ta tuxum bo'lishi aniqlandi. Tuxumlarning uzunligi 36,6 mm, eni 29,1mm, ogirligi 11,3 grammni tashkil etadi.(4-jadval).

XULOSA

Hamma kaptarsimonlarga xos bo'lgan holda kichik musicha va ko'k kaptar dag'al va mustahkam bo'lmagan uya qo'yadi. Kichik musicha va ko'k kaptar odatda ikkita tuxum qo'yadi, ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra tuxumlar soni 1-3 tagacha bo'ladi. Kichik musicha va ko'k kaptar biologiyasi o'rganilishi natijasida ularning uya tuzilishi va tuxum qo'yish soni o'xshash bo'lsada, ko'k kaptar uyasining yirikligi, tuxumining og'irligi va kattaligi hamda asosan chordoqda uya qurishi bilan kichik musichadan farq qilishi aniqlandi.

REFERENCES

1. Богданов О.П., Мекленбурцев Р.Н. Фауна Узбекской ССР. - Ташкент, Т. I., Ч. Птицы, 1956.
2. Мекленбурцев Р.Н. Голубиные. В. Кн. Птицы Узбекистана. Изд- во «Фан», Ташкент, 1990.
3. Сатаева З.Л. Слена сезонных аспектов авифауны по Ташкент и его акрестностям. Тр САГУ, сер VIII-а, зоол., вып.29.
4. Зохидов Т.З., Мекленбурцев Р.Н. Природа и животный мир Средней Азии.- Ташкент, Укитувчи, 1969.
5. Мекленбурцев Р.Н. Голубиные. В. Кн. Птицы Узбекистана. Изд- во «Фан», Ташкент, 1990.
6. [http:// birds.ru](http://birds.ru).
7. Лановенко Е.Н. Стратегия гнездования малой горлицы в городских коллективных поселениях.//Мат.IV Респуб.орнит.конф.Ташкент,1994.-С.34- 36.